O'ZBEKISTON JOY NOMLARINING MADANIYAT BILAN BOG'LIQLIGI

Muhiddinova Nilufar Sadriddin qizi
President ta'lim muassalari agentligi tizimidagi
Nurota tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
Ingliz tili fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.13883957

Annotatsiya: Mazkur tezis O'zbekiston joy nomlarining badiiy asarlarda qamrab olinishi va ularning kelib chiqishi, etimologik tahlili va madaniyat bilan bog'liqligini ko'rsatib beradi. Joy nomlari oldin faqat geografik jihatdan tadqiq qilingan bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda ularning etimologik tahlili ham o'z dolzarbligini kasb etib kelmoqda. Ushbu tezis faqat yirik va taniqli shahar nomlari tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: etimologik tahlil, joy nomlari, badiiy asarlar, qadriyatlar, geografik tushuncha

Til insoniyat madaniyati va hayot tarzi bilan birgalikda rivojlanib boruvchi tirik muloqot vositasidir. Har bir tilning rivojlanib borishiga o'sha joyning nomlari, toponimikasi, xalq kundalik hayoti o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Badiiy adabiyotlarda ishlatilgan joy nomalrini tahlil qiladigan bo'lsak yuqoridagi firimizning yorqin dalilini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda O'zbekistonda milliy madaniyat va tarixiy merosni asrab-avaylash va o'rganish masalalari dolzarb bo'lib turibdi. Badiiy asarlarda O'zbekiston joy nomlarining ishlatilishi milliy o'zlikni anglashda muhim vositadir, chunki bu nomlar tarixiy voqealar va xalqning madaniy xotirasini aks ettiradi. Ko'plab badiiy va tarixiy asarlarda uchraydigan "Nurota" joy nomi ham boy tarixiy ahamiyatga ega. Nur (arabcha: النور) islom kontekstida „tunning sovuq nuri" yoki „issiqsiz yorug'lik", ya'ni oy nuriga ishora qiluvchi atamadir . Bu yorug'lik „Xudoning hidoyati" va „bilim" timsoli sifatida ishlatiladi, Nardan farqli o'laroq rahm-shafqat ramzi bo'lib, u kunlik quyosh „issiq nuri", ya'ni olovga ishora qiladi.Qur'onda Alloh „osmonlar va yerning nuri" (Nur oyati) deb aytilgan. Qur'onning ko'plab mumtoz tafsirchilari buni tom ma'noda emas, balki dunyoni tushuncha bilan yoritib turgan Xudo bilan solishtirishadi. Nur Muhammad (Muhammadning mohiyati) hamma narsaning kvintessensiyasi degan tushunchaga vakillik qiluvchi birinchi va eng asosiysi Sayyid Abdulqodir Giloniy bo'lib, bu fikrni o'zining „Sirr ul Asror" kitobida bayon qilgan (1).

Tarixdan ma'lumki, Nurota taxminan 5-6-asrlarda qurilgan bo'lib, Oq tog'ning etak qismida joylashgan. Asli nomi Nur, xalq uni hurmatlab, "ota" so'zini qo'shib ataydi. Qal'ada katta buloq bor, atrofda undan boshqa oqar suv yo'q. Suv boshiga egalik qilib, dushmanga bardosh berish maqsadida qadimda buloq ustiga paxsadan qal'a qurilgan. Keyinchalik o'sha qal'a atrofida shahar vujudga kelgan (2).

Zamonaviy badiiy asarlarda O'zbekiston joy nomlarining etimologik tahlili orqali madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish va yangi avlodga yetkazish zarurati mavjud. Shunday qilib, "O'zbekiston joy nomlarining badiiy asarlardagi o'rni va madaniyat bilan bog'liqligi" mavzusi xalqimizning madaniy xotirasi va tarixiy o'zligiga e'tibor qaratish, joy nomlarining ramziy va madaniy ma'nosini ochib berishda ahamiyatli hisoblanadi.

O'rganilishi kerak bo'lgan muammo shuki, ilgari O'zbekiston joy nomlari badiiy asarlarda ko'plab o'rganilgan bo'lsa-da, ular ko'pincha faqat geografik tushunchalar sifatida qaralgan. Joy nomlarining etimologik ildizlari va madaniyat bilan bog'liqligi yetarlicha o'rganilmagan. Shu bilan birga, joy nomlarining badiiy asarlarda qanday ramziy ma'nolarga ega ekanligi, ularning madaniy va tarixiy talqini ko'proq izlanishlarni talab qiladi. Bu muammo dolzarb bo'lib, hozirga qadar ushbu jihatlar chuqur tadqiq etilmagan (3).

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston joy nomlarining badiiy asarlardagi o'rnini etimologik tahlil qilish va ularning madaniy ramziyligini ochib berishdir. Shu bilan birga, joy nomlarining xalqning madaniy va tarixiy merosi bilan qanday bog'liq ekanligini yoritish va ularning badiiy asarlardagi rolini chuqur tahlil qilish orqali o'zbek adabiyotiga yangi ilmiy yondashuvni taklif etishdir.

Tadqiqotning natijalari quyidagicha :

1. O'zbekiston joy nomlarining badiiy asarlardagi o'rni aniqlandi. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi joy nomlarining badiiy asarlarda ishlatilishi orqali o'quvchilarda asarning madaniy konteksti to'g'risida tushuncha hosil bo'ladi.

2. Joy nomlarining etimologik tahlili madaniy va tarixiy qatlamlarni ochishga yordam beradi. Masalan, Buxoro va Samarqand joy nomlarining ildizlari diniy va iqtisodiy markazlar sifatida ularning tarixiy ahamiyatini aks ettiradi.

3. O'zbekiston joy nomlarining badiiy asarlarda qo'llanilishi xalqning milliy xotirasi va o'zligini anglashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. O'zbekiston joy nomlari faqatgina geografik belgilar emas, balki xalqning boy madaniy merosi va tarixiy o'zligini aks ettiruvchi onomastik

birliklardir. Ular badiiy asarlarda ishlatilganda asarning mazmunini boyitib, o‘quvchiga voqealar joylashgan makonning ramziy va madaniy ma’nosini ochishga yordam beradi

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Sayyid Abdul Qadir Gilani, Sirr ul Asrar, Qohira, 2000, 12-13b.
2. A.Yusupov, Nurota tarixi, Manaviyat 2002, 8b.
3. D. Ilhomova, O’zbek tilidagi joy nomlari tahlili, Toshkent, 2004, 33b